


21-iyun kuni Halqasimon Quyosh tutilishi kuzatiladi

Shu yilning 21-iyun kuni Yer yuzi aholisi qiziqarli astronomik hodisalardan biri – Halqasimon Quyosh tutilishini kuzatishlari mumkin. Ushbu tutilish to'liq shakldagi Halqasimon tutilish hisoblanib, tutilishning to'liq fazasida Quyosh yuzasining 99,4 foizini tashkil qiladi. Quyosh tutilishi to'liq fazasining davomiyligi 38 sekundga teng bo'ladi.



Tutilish fazalari	Dunyo vaqti
Qisman tutilishning boshlanishi	21-iyun 03:45:58
To'liq tutilishning boshlanishi	21-iyun 04:47:45
Tutilishning maksimum qiymati	21-iyun 06:40:04
To'liq tutilishning tugashi	21-iyun 08:32:17
Qisman tutilishning tugashi	21-iyun 09:34:01

Ushbu astronomik hodisa Afrika, Arabiston yarim oroli, Yevroosiyo, Yapon va Malay arxipelagi hamda Avstraliya hududlarida joylashgan 111 ta davlatda kuzatish mumkin.



Bu davlatlar ichida (Kongo Respublikasi, Kongo Demokratik Respublikasi, Markaziy Afrika Respublikasi, Sudan, Janubiy Sudan, Efiopiya, Saudiya Arabistoni, Eritriya, Yaman, Ummon, Pokiston, Hindiston, Xitoy va Tayvan) 14 ta davlat aholisi to'liq shakldagi Halqasimon Quyosh tutilishini kuzatish imkoniga egalar.

O'zbekiston Respublikasining hamma hududida qisman Quyosh tutilishi kuzatiladi. Quyosh tutilishi eng katta qiymatiga erishgan vaqtida Respublikamizning shimoli-g'arbiy hududlarida ya'ni, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Xorazm viloyatida Quyosh yuzasining 39% dan 50% gacha bo'lgan qismi, Buxoro, Navoiy, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida esa Quyosh yuzasining 58% gacha bo'lgan qismi Oy tomonidan to'siladi. Yurtimizning eng janubiy hududi - Termiz shahrida esa bu qiymat 63% gacha yetadi. O'zbekiston aholisi quyidagi jadval asosida tutilishni kuzatishlari mumkin.

Aholi yashash punktlari	Tutilishning boshlanish vaqti	Tutilishning maksimum vaqti	Tutilishning tugash vaqti	Maksimal fazasi (foizda va tutilish kattaligida*)	Tutilishning umumiy davomiyligi
Toshkent	10:01	11:24	12:51	51% (0,61)	2 soat 49 daqiqa
Nukus	09:56	11:08	12:27	39% (0,50)	2 soat 31 daqiqa
Urganch	09:54	11:09	12:30	42% (0,53)	2 soat 35 daqiqa
Navoiy	09:54	11:15	12:43	52% (0,61)	2 soat 48 daqiqa
Buxoro	09:52	11:13	12:40	52% (0,61)	2 soat 48 daqiqa
Samarqand	09:55	11:18	12:47	55% (0,64)	2 soat 52 daqiqa
Qarshi	09:51	11:14	12:44	56% (0,65)	2 soat 52 daqiqa
Termiz	09:49	11:15	12:49	63% (0,71)	2 soat 59 daqiqa
Jizzax	09:57	11:20	12:49	54% (0,63)	2 soat 52 daqiqa
Guliston	09:58	11:22	12:50	54% (0,63)	2 soat 52 daqiqa

Andijon	10:04	11:29	12:59	55% (0,65)	2 soat 55 daqiqa
Namangan	10:03	11:28	12:57	54% (0,65)	2 soat 53 daqiqa
Farg'ona	10:02	11:27	12:57	56% (0,65)	2 soat 53 daqiqa
Qo'qon	10:01	11:26	12:56	56% (0,65)	2 soat 54 daqiqa
Zomin	09:57	11:21	12:50	55% (0,64)	2 soat 52 daqiqa

O'zbekistonning yirik aholi punktlari uchun Halqasimon Quyosh tutilishining ba'zi tafsilotlari.

*Tutilish kattaligi – bu Quyosh diametrining Oy tonomidan to'silgan qismi hisoblanadi.

Quyosh tutilishi Toshkent vaqti bilan 10:01 da boshlanadi, maksimum fazasi esa 11:24 da kuzatiladi. Shu paytda Oy Quyosh yuzasining 51% ini to'sadi va bu vaqtda Quyoshning gorizontdan balandligi 68° ni tashkil qiladi. Toshkent shahrida Quyosh tutilishining umumiy davomiyligi 2 soat 49 daqiqani tashkil etadi. Soat 12:51 da Quyosh tutilishi yakuniga yetadi. Ushbu qiymatlar faqat Toshkent shahri uchun hisoblangan bo'lib, tutilishning boshlanishi, maksimal qiymati va tugashi yurtimizning boshqa hudularida ham shunga yaqin vaqtlarda va qiymatlarni aks etgan holda yuz beradi.

Tutilish fazalari	To'silish foizda	Toshkent vaqti	Quyoshning gorizontdan balandligi
Qisman tutilishning boshlanishi	0%	21-iyun 10:01:48	55°
Tutilishning maksimum qiymati	51%	21-iyun 11:24:10	68°
Qisman tutilishning tugashi	0%	21-iyun 12:51:40	71°

Tutilish fazalarining Toshkent vaqti bo'yicha boshlanish vaqti

Manba: <http://astrin.uz/>